



MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Turan International University

Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Madaminova Mahliyo Silijon qizi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari tahlil qilingan. Dastlabki tarbiya shakllaridan boshlab, maktabgacha ta'lim muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi, davlat siyosati va islohotlarning mazmuni ochib berilgan. Maqolada maktabgacha ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya tarixi, ta'lim tizimi, bolalar rivoji, pedagogika, ta'lim islohotlari.

Annotation

This scientific article analyzes the origin, historical stages of development, and modern trends of preschool education. The formation and evolution of preschool educational institutions are discussed based on scientific sources, starting from early forms of child upbringing. Particular attention is given to the development of preschool education in the Republic of Uzbekistan, state policy, and ongoing reforms. The role of preschool education in social development is scientifically substantiated.



Keywords: preschool education, history of education, upbringing, child development, pedagogy, educational reforms.

Kirish

Maktabgacha ta'lim inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda berilgan tarbiya va ta'lim bolaning keyingi hayot yo'lini belgilab beradi. Shu bois maktabgacha ta'limning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va bugungi kundagi holatini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Pedagogika fanida maktabgacha ta'lim alohida yo'nalish sifatida shakllanib, jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelmoqda.

Maktabgacha ta'limning dastlabki shakllari qadimgi jamiyatlarda oilaviy tarbiya doirasida amalga oshirilgan. Bolalarni hayotga tayyorlash, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish ota-onalar va kattalar zimmasida bo'lgan.

XIX asrga kelib, sanoatlashuv jarayonlari, ayollarning mehnat bozorida faol ishtiroki bolalar tarbiyasini tashkil etishning yangi shakllarini taqozo etdi. Natijada bolalar bog'chalari va tarbiya muassasalari vujudga kela boshladi. Nemis pedagogi Fridrix Frebel tomonidan "bolalar bog'chasi" tushunchasining ilmiy asoslari ishlab chiqildi.

Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592- 1670)ning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi.



Undan tashqari «Onalar maktabi» degan maktabgacha tarbiya qoʻllanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir.

Komenskiy oʻzining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uygʻun boʻlishi toʻgʻrisidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bogʻbon daraxtning biologik oʻsish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi.

Ijtimoiy maktabgacha taʼlimning vujudga kelishi Ijtimoiy maktabgacha taʼlimning vujudga kelishi asosan 1917-1918 yillardan keying davrlarga toʻgʻri keladi. Jumladan, Xalq maorifi komissarligi 1917 yil 20 noyabrdagi deklaratsiyasida mamlakatda davlat tomonidan maktabgacha taʼlim muassasalarini tashkil etish, soha xodimlarini tayyorlash vazifasi kun tartibiga qoʻyiladi.

1918 yilda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha taʼlim boʻlimi tashkil etiladi. Uning zimmasiga bolalar bogʻchalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan taʼminlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar oʻrtasida targʻibot-tashvoqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi.

Maktabgacha taʼlim xalq maorifi tizimining birinchi boʻgʻini va tarkibiy qismi boʻlib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan davlat dasturida xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha taʼlim boʻlimi tashkil etiladi. Uning zimmasiga bolalar bogʻchalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan taʼminlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar oʻrtasida targʻibottashviqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Maktabgacha taʼlim xalq maorifi tizimining birinchi boʻgʻini va tarkibiy qismi boʻlib qoldi. Turkistonda bolalar bogʻchasining tashkil etilishi. Turkistonda dastlabki davlat bolalar bogʻchalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi.



1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi, viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha ta'lim bo'linmalari tashkil etildi.

“Maktabgacha ta'lim bo'limi to'g'risi” dagi nizomda mazkur bo'limlar 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha bolalar tarbiya muassasalariga rahbarlik qilishga, ularning faoliyatini nazorat etishga, yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, yozgi oromgohlarning ochishga, ushbu muassasalar uchun kadrlar tayorlash maqsadli kurslarini tashkil qilishga mas'ul ekani qayd etilgan.

Ushbu bo'limlarning uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritishi nazarda tutilgan:

- 1)bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar bilan ta'minlash:
- 2)maktabgacha ta'lim xodimlari, shu jumladan, mahalliy ahvoli vakillaridan kadrlar tayyorlash;
- 3)ota-onalar o'rtasida tashviqot-targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib boorish. Bu o'rinda o'lkada mahalliy aholi bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda kechganini ta'kidlash joiz.

1918 yilda Toshkentning eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun atigi 4 ta bog'cha ochilgan, xolos (xususan, birinchi bog'cha – Shayxontoxur dahasida, ikkinchi bog'cha-Xo'ja ko'chasida, uchinchi bog'cha-Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chasida, to'rtinchi bog'chaBeshyog'och dahasida ochilgan). Bunday muassasalar Samarqandda (2ta bolalar bog'chasi va 3 ta bolalar uyi) va Kattaqo'rg'onda ham tashkil etilgan.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog'cha va 12 ta bolalar maydonchalari tashkil



etilib, ulardan 4 tasi o'zbek va boshqa mahalliy millatlar bolalari tarbiyalangan. O'sha davrda maktabgacha ta'lim muassasalariga jami 6394 bola qamrab olingan.

1921 yilga kelib bolalar bog'chalari soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 32 taga yetgan. Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 nafar bolani tashkil etgan, ulardan 2000 dan ziyodigina mahalliy millat farzandlari edi.

1937 yil 3 mayda qabul qilingan "Bolalar bog'chalari to'g'risi"dagi qarorda "Qaramog'ida bolalar bog'chalari bo'lgan xo'jalik tashkilotlari va muassasalari zimmasiga tegishli ittifoqdosh respublikalarning Sog'liqni saqlash va Xalq maorifi komissarliklari tomonidan bolalar bog'chalari sanitariya-gigiyena qoidalari, binolar, jihozlar, qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalari bilan ta'minlash, bolalarni ovqatlantirish va ularga tibbiy yordam xizmati ko'rsatish yuzasidan belgilangan me'yorlarga rioya qilish vazifasi yuklansin", deb ta'kidlangan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar ko'paydi. 1944 yil 1yanvariga kelib, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning umumiy soni 54 ming nafarni tashkil etdi. Xalq maorifi komissarlari kengashining "Maktabgacha ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash choralari to'g'risida"gi 1959 yil 21 may qarorida quyidagilar nazarda tutilgan: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida, mahalliy sharoit va imkoniyatlarni e'tiborga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarining ikki turi-yasli va bolalar bog'chasini yagona maktabgacha ta'lim muassasasi sifatida tashkil etish va ularga xalq maorifi komissarligi rahbarlik qilishi belgilab qo'yilgan;



-bundan buyon barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar turar joylarini yaqinlashtirish maktabgacha ta'lim muassasalari namunaviy loyixa asosida qurilishi;

-ittifoqdosh respublikalarda maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida nizom ishlab chiqish;

-pedagogika fanlari va tibbiyot akademiyalari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;

-tabiyachilar va tibbiy yordam xodimlarini tayorlash;

-bolalarni ovqatlantirish va maktabgacha ta'lim muassasalarini jihozlar bilan t'minlash;

-bolalar bog'chasiga qatnamaydigan bolalar uchun bolalar istirohat bog' va xiyobonlarida, hovlilarda maydonchalar tashkil qilish va ularni jihozlash ishlari tashkil etish -aholi o'rtasida ma'ruzalar o'qish, suhbatlar o'tkazish, ommaviy-ilmiy adabiyotlarni ko'p nusxada nashr etish;

-bolalarni tarbiyalash va ularning sog'lig'ini saqlash masalalarini yorituvchi badiiy adabiyotlar nashr etish, kinofilmlar yaratish, radio, televideniye eshittirishlarini kehgaytirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti quyidagi bosqichlarda rivojlangan:

• **An'anaviy tarbiya bosqichi** – oilaviy va jamoaviy tarbiya ustuvor bo'lgan davr;

• **Institutsional shakllanish bosqichi** – bolalar bog'chalari va tarbiya muassasalarining tashkil topishi;



- **Ilmiy-pedagogik rivojlanish bosqichi** – maktabgacha pedagogika fan sifatida shakllanishi;

- **Zamonaviy rivojlanish bosqichi** – innovatsion texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratildi. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, dasturlar va konsepsiyalar maktabgacha ta’limni rivojlantirishga xizmat qildi. Xususan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim mazmunini tubdan yangilashga yo‘naltirildi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining kengayishi ham soha rivojida muhim omil bo‘ldi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limning asosiy yo‘nalishlari

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- bolaning shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishi;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- inklyuziv ta’limni rivojlantirish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash.

Xulosa

Maktabgacha ta’limning rivojlanish bosqichlari – an’anaviy tarbiya, institutsional shakllanish, ilmiy-pedagogik rivojlanish va zamonaviy innovatsion



bosqichlar – har birida maktabgacha ta’lim mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari tubdan takomillashgan. Shu orqali bolalar tarbiyasining sifatini oshirish, ijtimoiy moslashuv va o’qishga tayyorgarlik kabi maqsadlar amalga oshirilgan.

Maktabgacha ta’limning tarixiy rivojlanishini chuqur o’rganish pedagogik fan, amaliyot va davlat siyosatining uzviy bog’liqligini ko’rsatadi. Tarixiy tajriba va zamonaviy tendensiyalarni uyg’unlashtirish orqali ta’lim sifati oshiriladi, pedagogik innovatsiyalar tatbiq etiladi va bolalarning huquq hamda manfaatlari to’liq himoya qilinadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tarixi va rivojlanish bosqichlarini o’rganish nafaqat pedagogik bilimlarni boyitadi, balki davlat ta’lim siyosatini yanada samarali amalga oshirish, bolalar tarbiyasini zamonaviy talablarga moslashtirish va ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, maktabgacha ta’limni tarixiy nuqtai nazardan chuqur o’rganish va zamonaviy rivojlanish yo’nalishlarini amaliyotga tatbiq etish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha pedagogika oquv qo’llanma . Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna Toshkent 2022.
2. <https://zenodo.org/>
3. <https://uniwork.buxdu.uz/>
4. <https://www.google.com/>